Annotatsiya: Ushbu maqoladagi tadqiqot ishida maishiy xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanish tendensiyalari va kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni bugungi davr talablariga mos rag'batlantirishlarni o'rganish, sohaga oid turli mutaxassislar va iqtisodchi olimlarning fikrlarini tahlil qilish asosida soha rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muammolar tanlab olingan hamda yaxlit tizim sifatida umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: maishiy xizmat, tendensiya, kambag'allik, iqtisodiyot, xizmat, modernizatsiya, iste'mol savatchasi, yashash minimumi, oziq-ovqat, nooziq-ovqat, kompyuterlar, radioelektron, hammom, sauna, dush, lizing, sartaroshxona, iste'molchi.

Abstract: In this research work current problems are selected and summarized into a single system based on an analysis of the opinions of various experts and economists related to the consumer services sector, its development trends and poverty reduction.

Key words: household services, trend, poverty, economy, service, modernization, consumer basket, subsistence level, food, non-food products, computers, radio electronics, bathhouse, sauna, shower, leasing, hairdresser, consumer.

Аннотация: В данной исследовательской работе выбраны актуальные проблемы и обобщены в единую систему на основе анализа мнений различных экспертов и экономистов связанные с сектором бытовых услуг её развитие тенденции и сокращение бедности.

Ключевые слова: бытовые услуги, тренд, бедность, экономика, услуга, модернизация, потребительская корзина, прожиточный минимум, продукты питания, непродовольственные товары, компьютеры, радиоэлектроника, баня, сауна, душ, лизинг, парикмахерская, потребитель.

KIRISH

Jahonda iqtisodiyotni raqamlashtirish va innovatsion rivojlantirish jarayonining yanada jadallahushi sharoitida turmush sifatining ortib borish tendensiyasiga ko'ra maishiy xizmat ko'rsatish tizimini samarali rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, umumiyl bandlarning esa 70,0 %dan ortig'i va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 % xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda sifatli iste'mol tovarlari va xizmatlarga bo'lgan talabning ortib borishi maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning samarali dastaklarini amaliy faoliyatga qo'llash va kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni mavjudligiga alohida e'tibor bilan qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini oshirish va intensivligini ta'minlash, zamonaviy maishiy xizmatlar turlarini kengaytirish asosida aholining maishiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinalarini yaratish. Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish" [1] kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda maishiy xizmatlar raqobatbardoshligi va sifatini oshirish, xizmatlar jarayonlarini modernizatsiyalash, maishiy xizmatlar sohasi rivojlanishining ekonometrik modellarini ishlab chiqish, zamonaviy maishiy xizmatlarni



tashkil etish, boshqarish kabi yo'nalishlar va kambag'allikni qisqartirish borasida ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlash-tirish alohida ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Biz mazkur maqolada maishiy xizmatlar haqida gapirar ekanmiz, eng avval ularning aholi maishiy tur-mushidagi o'rnnini, xizmatning kundalik hayotimizga taalluqli ekanligini alohida ta'kidlashni lozim topdik.

Sh.Z.Valiev, T.Ye.Kazakova, A.S.Ishmeevalarning fikricha, xizmat – bu ma'lum bir iste'mol qiyamatini shakl-lantiruvchi, zaruriy samaraga olib keladigan hamda uni o'zida namoyon etuvchi iste'mol nafliligining tarkibiy qismidir^[3]. Xizmatlar turli toifaga taalluqli aholining mehnat faoliyati davomida almashinadigan yangi tovari yoki yangi faoliyat samarasini bo'lib, ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojlanishi va chuqurlashuvining mahsulidir. Maishiy xizmatlar esa mehnat munosabatlari ayriboshlanishining ana shunday ko'rinishlaridan biridir.

Iqtisodchi olimlar tomonidan "maishiy xizmat" tushunchasiga juda ko'p ta'riflar berilgan. Bu ta'riflar borasi-dagi bahs-munozaralar bugungi kunda ham maishiy xizmat ko'rsatishning barcha jabhalariga tegishli bo'lib, ushbu tushunchani yanada mukammalroq asoslash kerakligini ko'rsatadi.

M.B.Rossinskiy va M.T.Roze maishiy xizmatlarga "uy mehnatini ma'lum darajada almashtiradigan yoki qisqartirishga imkon beradigan xizmatlar"ni kiritishadi. Ushbu olimlar asosiy e'tiborni insonlar kundalik hayo-tidagi xizmatlarni qisman soddalashtirish va ularni boshqa turdagisiga almashtirishga qaratgan holda mavjud mahsulotning iste'mol davrini yanada uzaytirish, jumladan, iste'mol qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan boshqa xizmatlar inobatga olinmagan^[4].

V.V.Yuximenko fikricha, maishiy xizmatlar aholining maishiy turmushi bilan chambarchas bog'liq ehtiyoj-larini qondirishga yo'naltirilgan turli xil ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish ko'rinishidagi harakati yoki mehnatining iste'mol qiyatini o'zida aks ettiradi^[5]. Bu yerda maishiy xizmat mehnatni tashkil etish shakli va iste'mol nuqtayi nazaridan olib qaralgan holda ularni amalga oshirishda individual xarakteri ochib berilmagan.

A.I.Garaninning yozishicha, "Ma'lumki maishiy xizmatlar, pullik xizmatlarning tarixiy shakllangan muayyan majmuyi va turlari hisoblanib, korxonalar tomonidan aholining yakka tartibdagi buyurtmalarini bajarishga hamda ularning shaxsiy daromadlari asosida to'lov qilinadigan xizmatlardir"^[6]. Ammo muallif ushbu ta'rifda maishiy xizmatlar nafaqat korxonalar tomonidan, balki jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda ham ko'rsatilishi, ularning barchasi ham aholining shaxsiy daromadi hisobidan qoplab berilishi mumkinligini e'tiborga olmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasida bo'lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 18–15 foizini, ya'ni, 4-5 mln. kishini tashkil etmoqda. Bu 4-5 mln. aholining bir kunlik daromadi 10–13 ming so'mdan oshmaydi, ayniqsa, bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lgani bilan, oila daromadining kamida 70 foizi shu oilada biror kishi og'ir kasal bo'lganda, uni davolatishga sarflanadi. Bunday muammolarni hal etishga, umuman iqtisodiy taraqqiyotga erishish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi tizimni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdag'i "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4653-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kambag'allikni qisqartirishda maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish muhim omil ekanligini asoslab berish, ilmiy maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Kambag'allik, uni aniqlash va qisqartirish bilan bog'liq masalalar bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida monografik kuzatuv, tizimli yondashuv, analiz va sintez usullaridan foyda-lanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allik yurtimizda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo'lib, avvallari bu kategoriyaning o'rniiga yumshatish qabilida "kam ta'minlanganlik" tushunchasi bilan almashtirib kelingan edi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etish haqida yuksak minbarlarda ham ochiq-oydin gapirilmoqda.

Xususan, Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan ahola qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitob-larga ko'ra, ular taxminan 18–15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning



4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning bir kunlik daromadi 10–13 ming so‘mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo‘lishi mumkin, lekin bir kishi og‘ir kasal bo‘lsa, oila daroma-dining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo‘s bunday oilani o‘ziga to‘q deyish mumkinmi? Prezident sifa-tida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o‘qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlar nima bo‘lyapti, degan savol har kuni qiyinaydi. Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kom-pleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobida “Kelgusida aholining to‘liq bandligini ta‘minlash va barcha uchun munosib ish o‘rinlarini yaratish doimiy ravishda diqqat markazimizda bo‘ladi. Bandlik darajasini yangi bosqichga kuchli ko‘tarish, real ish haqining barqaror o‘sishiga ko‘maklashuvchi oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tamoqqa xo‘jaligi va xususiy biznesni qo‘llab-quvvatlash hisobiga aholi bandligini ta‘minlash hamda fuqorolar oilaviy budget daromadlarini oshirish borasidagi ishlar ham biz uchun o‘z ahamiyatini saqlab qoladi”¹ deb ta‘kidlab o‘tgani.

O‘zbekistonda oxirgi 2 yil ichida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,3 barobarga ko‘paydi, nafaqalar miqdori 2 barobarga oshdi. Lekin kam ta‘minlangan aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash yoki ular miqdorini oshirish orqali ushbu muammo to‘liq yechilmaydi. Zero ushbu o‘rinda qadimgi Xitoy faylasufi, daosizm asoschisi Lao-Szining chuqur hayotiy mulohazalari asosida ta‘kidlagan hikmatli so‘zidan iqtibos keltiradigan bo‘lsak, “Och qolgan insonga baliq bersang, uni bir kunlik qornini to‘ydirasan. Agar unga qarmoq berib, baliq ovlashga o‘rgatsang, uni bir umr ochlikdan qutqarasan” deydi.

Buyuk mutafakkirimiz, she’riyat mulkining sultoni, davlat arbobi A.Navoiy ham bu borada quyidagicha fikr yuritadi: Bir diram olmoq chekibon dast ranj, Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.

Tadqiqotlar kambag‘allik mezonini aniqlash uchun avvalo, “iste‘mol savatchasi”ning huquqiy asoslarini belgilab olish talab etilishini ko‘rsatmoqda. Ko‘mak pullari va pensiya miqdorini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “iste‘mol savatchasi” va “yashash minimumi”ni belgilash va joriy etish, rivojlangan taraqqiyot sha-roitida har bir davlat ichki siyosatining asosida yotuvchi ushbu indekslarning mamlakatimizga xos ko‘rsatkichlari va me‘yorlariga aniqlik kiritish hayotiy zaruratga aylandi. Ma‘lumki, aholi turmush darajasini aniqlashda “iste‘mol savatchasi” tushunchasidan, ya‘ni muayyan iste‘mol darajasini ta‘minlovchi tovarlar va xizmatlar majmuidan foydalaniladi. Xalqaro amaliyotda aholi yashash minimumini hisoblashning statistik, sotsiologik, resurs, normativ usullari bor. Yashash minimumi eng kichik miqdori tarkibi turli davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Masalan, AQShda “iste‘mol savatchasi”ga 300 nomdag‘i, Germaniyada 475 nomdag‘i, Angliyada 350 nomdag‘i, Rossiyada 156 nomdag‘i tovar va xizmatlar kiritilgan. “Iste‘mol savatchasi”ni uchta asosiy tarkibiy qism – oziq-ovqat, nooziq-ovqat va xizmatlarga ajratish mumkin. Undagi oziq-ovqatlar miqdori ulushi aholining turmush darajasi qay darajada ekanligini belgilaydi.

Mamlakatimizda aholisining aksariyat qismi “iste‘mol savatchasi”da oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi ko‘proq. Mana shu ulushni bartaraf etish va “iste‘mol savatchasi”da nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlari miqdorini oshirish maqsadida tegishli tashkilot va muassasalar oldiga bir qator vazifalar qo‘yildi. Bunda, asosiy e’tibor aholini tadbirkorlikka o‘rgatish, mayjud imkoniyatdan samarali foydalanishga qaratildi. Xuddi shu maqsadda aholi daromadini oshirishning eng samarali yo‘li – bu fuqarolarni boqimandalik holatidan va kayfiyatidan chiqarish, ularning bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Aholiga xizmat ko‘rsatishning tasniflagichiga ko‘ra, quyida keltirilgan bir qator xizmatlar maishiy xizmatlar kategoriyasiga taaluqlidir:

- to‘quv va turli xildagi charm mahsulotlari, to‘qimachilik mahsulotlari (galantereya) va bosh kiyimlarini tikish va ta‘mirlash, trikotaj mahsulotlarini tayyorlash va ta‘mirlash;
- oyoq kiyimlarini tikish va ta‘mirlash xizmatlari;
- maishiy texnika asbob va uskunalari, zargarlik mahsulotlarini ta‘mirlash va tayyorlash, kompyuterlar, radioelektron apparatura, televizorlar, soat, musiqa asboblariga texnik ishlov berish va ularni ta‘mirlash;
- turar joy va boshqa binolarni aholining buyurtmasiga ko‘ra qurish va ta‘mirlash;
- turli xildagi mebellarni tayyorlash va ta‘mirlash, ularni quruq tozalash;
- aholining transport vositalari, jumladan, yengil avtomashinalar, motosikl va boshqa jihozlarni ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;
- kir yuvish xizmatlari;
- suratxona xizmatlari;
- sartaroshlik, jumladan, manikyur, pedikyur va kosmetolog xizmatlari;
- transport-ekspeditorlik xizmatlari;
- hammom, sauna va dush xizmatlari;

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobi. O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent-2022, 196-bet.



- lizing kompaniyalari xizmatlari;
- tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari.

Bugungi kunda mamlakatimizda maishiy xizmat ko'rsatish faoliyati aholiga ushbu xizmatlarni ko'rsatish qoidalari asosida tartibga solinadi. Maishiy xizmat ko'rsatish iqtisodiyot majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi, takror ishlab chiqarish tizimida ishtirok etadi hamda faoliyatini umumiy iqtisodiy qonuniyatlar asosida tashkil qildi.

1-jadval: Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish dinamikasi [6]

Yillar	Maishiy xizmatlar (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %	Ishlovchilar soni, ming kishi	O'sish sur'ati, %
2018	667,8	104,8	63,4	104,7
2019	803,4	104,0	66,0	104,1
2020	1022,9	104,5	72,4	109,7
2021	1126,9	102,2	73,1	101,0
2022	1521,2	112,8	78,5	107,4

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi korxonalarining asosiy salohiyati kadrlardan tashkil topgan. Maishiy xizmat sohasida kadrlar tarkibining o'ziga xos belgisi bu birinchi navbatda, undagi ishlovchilarning asosiy qismi o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislar ekanligidadir.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, maishiy xizmatlar hajmi 2022-yilda nisbatan yuqori o'sish (112,8 %) sur'atiga ega bo'lgan. Sohada faoliyat yuritadigan personal soni ham 2018–2022-yillar davomida 63,4 ming kishidan 78,5 ming kishiga oshgan. Bunda aholiga ko'rsatiladigan maishiy xizmatlar hajmining o'sishiga ularning narxi va ularga bo'lgan talab hajmi hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

2-jadval: Samarqand maishiy xizmat ko'rsatish birlashmasida 2019–2022-yillarning 1-yanvar holatiga ko'ra mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari [7]

Ko'rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yilda o'sish sur'ati, %		
					2019-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan	2022-yilga nisbatan
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mln. so'm	5100,5	6733,5	7165,6	8348,4	163,8	124,0	116,5
Xodimlar soni, kishi	5	6	9	10	200	167,0	111,1
Mehnat unumдорлиги, mln. so'm	1275,1	1683,4	1194,3	1192,6	93,5	70,8	99,8
Sof foyda, mln. so'm	745,1	912,7	1046,5	1102,5	148,0	120,8	105,3
Har bir xodim hissasiga to'g'ri keladigan sof foyda, mln. so'm	149,1	152,1	116,3	110,25	73,9	72,5	94,8

Masalan, Samarqand viloyat maishiy xizmat ko'rsatish birlashmasida 2019–2022-yillarda mehnat unumдорлиги pasayish tendensiyasiga ega bo'lsa ham, bu davrlar ichida uyushma tomonidan olingan sof foyda miqdori o'sish tendensiya ega bo'lgan, ya'ni bu ko'rsatkich 2022-yilda 2019, 2020, 2021-yillarga nisbatan mos ravishda 148,0 foiz, 120,8 foiz, 105,3 foizlarga oshgan. Ammo tashkilotda har bir xodim hissasiga to'g'ri keladigan sof foyda hajmi 2019-yilda 149,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 110,25 ming so'mdan iborat bo'lgan. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichning o'sish sur'ati 2022-yil 2019-yilga nisbatan 73,9 foizga, 2020-yilga nisbatan 72,5 foizga, 2021-yilga nisbatan 94,8 foizni tashkil etgan. Buning asosiy sababi, uyushmada mehnat unumдорligining pasayish tendensiyasiga ega bo'lishi har bir xodim hissasiga to'g'ri keladigan sof foyda miqdorining pasayishiga olib kelgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maishiy xizmatlarga har qanday davrlarda ham zarurat sezilgan bo'lsa-da, bozor munosabatlari sharoitida u yanada dolzarb tus oladi. Shu sababli, biz o'rganayotgan sohaning kelajakda yanada samaraliroq rivojlanishi uchun birinchi navbatda, hududiy organlar tomonidan kerakli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish va kambag'allikni qisqartirisda o'rni mavjudligiga alohida e'tibor qaratish zarur.



Bugungi kunda mamlakatimizda maishiy xizmat ko'rsatish sohasi samarali taraqqiy etishiga to'siq bo'lувчи quyidagi muammolarni sanab o'tsak bo'ladi:

- sohani mahalliy va respublika miqyosida muvofiqlashtirish mexanizmining yaxshi shakllantirilmaganligi;
- maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlarining tumanlar bo'ylab tekis taqsimlanmaganligi;
- hududiy boshqaruvning maishiy xizmatlar sohasini me'yorlashtirish, rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlarining sustligi;
- aholining daromadlari turlicha ekanligini inobatga olib, maishiy xizmatlarni xarid qilishda ulardan aksariyat qismi qiyamatining yuqoriligi;
- ushbu turdag'i xizmatlar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- ushbu xizmatlar ko'laming aholi uchun kerakli miqdordamasligi;
- maishiy xizmatlarning insonlar birlamchi ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan turlarining shakllanmaganligi;
- iste'molchilarining maishiy turdag'i xizmatlar sifat darajasidan qoniqish hosil qilmasligi;
- sohada yuqori tajribali xodimlar (masalan, kiyimlarni bichish, etikdo'zlik, murakkab elektronika va zamonaviy maishiy texnika buyumlarini ta'mirlash ustasi)ning yetishmasligi;
- maishiy xizmat ko'rsatish subyektlari uchun sanitariya-gigiyenik talablarga javob beruvchi xizmat maydonlarining yetarli emasligi;
- maishiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha investitsion resurslar va kredit mablag'larini jalb etish imkoniyatining yetarli emasligi;
- maishiy xizmatlar sohasida norasmiy faoliyat yuritishning yuqoriligi bois bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini hisobga olishning murakkabligi;
- aholining maishiy xizmat ko'rsatish sohasi va uning barcha mavjud turlari bo'yicha yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;
- bugungi kunga kelib, ushbu sohaga oid statistik hisobning yetarli darajada yuritilmasligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 34-maqсад.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqiyot strategiyasi" kitobi. O'zbekiston nashriyoti, Toshkent-2022, 196-bet.
3. Валиев Ш.З., Казакова Т.Е., Ишмееева А.С. Экономика города: Учебное пособие. – Уфа: Уфимс. гос. акад. экономики и сервиса, 2008.
4. Биндиченко Е.В. Сфера услуг: теория и практика / Изд-е Башкире, ун-та. – Уфа, 2000. – С. 83.
5. Юхименко В.В. Социально-экономические вопросы прогнозирования бытового обслуживания населения. Автореферат дис.... канд. экон. наук. – М., 1974.
6. Гаранин А.И. Социально-экономические проблемы бытового обслуживания населения. Автореферат дис.... д-ра экон. наук. – М., 1980.
7. Azimjonovich R. N. (2023). General Characteristics of Socio-Economic Systems and Types of Socio-Economic Systems. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(12), 179-182.
8. Уралов Б. М., Очилова М. Т., Жавманов Ж. А., & Файзуллаев У. Х. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO 'NGI ILMY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.
9. Саламов И., Жонибеков Ф. Б., Казакова З. С., & Назарова М. Ш. (2022). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАРМОҚЛАРИДА ИННАВОЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ЖОРӢӢ ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 482-485.
10. O'G'Lи H. S. R., Maxmudovich U. B., & Abdusamatovich J. J. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(2), 158–165.
11. Xayrullo O'g'li F. U., Abdusamatovich J. J., Maxmudovich U. B., & Baxtiyorovna N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI BAR-TARAF ETISHNING MAHALLABAY ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH. WORLD OF SCIENCE, 7(2), 136-143.
12. Olimjanovna J. D., & Tashmuratovich E. U. (2024). CONCEPT AND ACCOUNTING OF CAPITAL INVESTMENTS IN AGRICULTURAL CLUSTERS. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(3), 188–188.
13. Odiljon o'g'li A. O., Abdusamatovich J. J., Maxmudovich U. B., & Baxtiyorovna N. G. (2024). KAMBAG'ALLIKNI ANIQLASH VA QISQARTIRISH MAMLAKATIMIZ IJTIMOIY-IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI. SO'NGI ILMY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(2), 237-246.
14. Samarqand viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.
15. Самарқанд вилояти "SAM MAISHIY SERVIS" бирлашмаси маълумотлари асосида муаллифнинг ҳисоб-китoblari.



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.